

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.A.Yuldashev	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini gumanizatsiyalash masalalari	218
I.A.Asatulloev	
Alfred adler falsafasida qalb tushunchasining psixoanalitik tahlili	223
D.Sh.Sagdullayeva	
Ijtimoiy - siyosiy modernizatsiya jarayonining tarixiy ildizlari	228
S.S.Sodiqov	
Yoshlarda faol pozitsiyani shakllantirishning milliy-tarixiy asoslari	234
I.A.Hamdammov	
Mirzo Ulug'bek – temuriylar renessansi asoschisi	240
H.X.HAKIMOV	
Развитие социально экономических идей в трудах ученых энциклопедистов Узбекистана в период первого ренессанса	245
Q.H.Boymirzayev	
Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va faoliyat yo'li, uning Musulmon Sharqidagi ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishidagi o'rni	252
B.M.Qandov, N.A.Abduvalieva	
Yangilanayotgan O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari	256
E.T.Qalqanov	
Vatanparvarlik madaniy hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari	261
Sh.X.Tog'ayev	
Yangilanayotgan O'zbekistonda o'zbek xalqi milliy g'ururini shakllantirishning manbalari va vositalari	266
I.A.Ikramov	
Jamiyat ijtimoiy hayotida ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlar strukturasi	272
V.B.Zayniddinova	
Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar strategiyasi	277
J.M.Miraxmedov	
Milliy o'zlikni anglash kontekstida tarixiy ongning gnoseologik tahlili	281
B.X.Mirzaraximov	
O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida turizm madaniyati rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari	285
D.E.Normatova	
Ekzistensializm – hayot falsafasi	293

SIYOSAT

I.A.Raximov	
“Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining xavfsiz muhitni yaratishdagi o`ziga xos mexanizmlari”	297
M.H.Rustamaliyev	
Jamiyatni barqaror taraqqiyotini ta'minlashda siyosiy boshqaruvga ehtiyojning kuchayishi	302
N.B.Dexkanov	
Siyosiy piar (pr)ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni	306
M.X.Baratov, R.T.Xakimov, B.T.Akramxodjaev	
Jahon Savdo tashkilotining tuzilishi, funksiyalari va faoliyat doirasi	312
J.K.Yusubov, F.X.Mustafoyeva	
Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanish	323
J.K.Yusubov, D.A.Xusanova	
Ahloqan yetuk va fidoiy davlat fuqarolik xizmatchilarini tarbiyalash – mamlakat rivojining muhim omili	327

TARIX

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatida yog'-moy sanoatining shakllanishi tarixidan (XIX asr oxiri XX asr boshlari)	331



UO‘K: 331.5(548.1)

**YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA AHOLINI ISH BILAN TA‘MINLASHNING
IJTIMOIY-HUQUQIY ASOSLARI****СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В
УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ УЗБЕКИСТАНА****SOCIAL AND LEGAL BASIS FOR ENSURING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN
THE CONDITIONS OF MODERNIZATION OF UZBEKISTAN****Qandov Bahodir Mirzaevich¹** ¹Chirchiq davlat pedagogika universiteti Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**Abduvalieva Nilufar Abdurasul qizi²**²Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada har bir insonning mehnat qilish huquqiga ega ekanligi, aholini ish bilan ta‘minlash tushunchasi va aholini ish bilan ta‘minlashga yordam beruvchi mas‘ul organ haqida hamda ishga joylashtirishdagi davlat kafolatlari to‘g‘risida so‘z boradi. Shuningdek maqolada aholini ish bilan bandligini ta‘minlash bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar tajribalari o‘rganilgan, ishsizlikni keltirib chiqaradigan omillar yoritib berilgan. Yangilanayotgan O‘zbekistonda aholining ish bilan bandligi va ishsizlik darajasi, ularning o‘zgarish tendensiyalari hamda aholi bandligi sohalar bo‘yicha tahlil qilingan. Maqolada aholini ish bilan bandligini ta‘minlash va ishsizlik darajasini kamaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Аннотация

В данной статье говорится о праве каждого человека на труд, понятии обеспечения занятости населения и ответственном органе, способствующем обеспечению занятости населения, а также государственных гарантиях занятости. Также в статье рассмотрен опыт развитых стран в обеспечении занятости населения, выделены факторы, вызывающие безработицу. Проанализированы уровень занятости и безработицы населения в модернизирующемся Узбекистане, тенденции их изменения и занятости населения по отраслям. В статье разработаны предложения по обеспечению занятости населения и снижению уровня безработицы.

Abstract

This article talks about the right of every person to work, the concept of ensuring employment of the population and the responsible body that promotes employment of the population, as well as state guarantees of employment. The article also examines the experience of developed countries in providing employment to the population, highlighting the factors causing unemployment. The level of employment and unemployment of the population in modernizing Uzbekistan, trends in their changes and employment of the population by industry are analyzed. The article develops proposals to ensure employment of the population and reduce unemployment.

Kalit so‘zlar: aholi, bandlik, raqamlashtirish, ishsizlik, ish o‘rinlari, mehnat migrantlari, o‘z-o‘zini band qilish, ish bilan ta‘minlash, ish bilan bandlik mehnat bozori.

Ключевые слова: население, занятость, цифровизация, безработица, рабочие места, трудовые мигранты, самозанятость, занятость, занятость, рынок труда.

Key words: population, employment, digitalization, unemployment, jobs, migrant workers, self-employment, employment, employment, labor market.

KIRISH

Bugun butun dunyo mamlakatlari o‘z oldida turgan muammolarga yechim topishning asosiy vositasi sifatida ilm-fanni taraqqiy ettirishga katta e‘tibor qaratmoqda. O‘zbekistonda ham ta‘lim va fanga ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning muhim omili deb qaralib, ushbu sohadagi islohotlarning tubdan bo‘lishiga harakat qilinmoqda. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2020-yilga “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nom berishni taklif qilishi mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma‘naviyat va

FALSAFA

madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlangan ishlarni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadini ko'zlagan.

Mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida o'tgan chorak asr davomida yuz bergan global iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar nafaqat bugungi kun, balki keyingi rivojlanish istiqbollari ham hisobga olgan holda yangi yondashuv va chuqur nazariy mushohadani talab qiladi. Yuqorida aytilganlar mehnat huquqiga ham aloqador bo'lib, mazkur huquq sohasi xodimlar va ularning oila a'zolari bo'lgan millionlab fuqarolarning, shuningdek ish beruvchilarning manfaatlariga bevosita ta'sir etadi.

Mamlakatimizda mehnat huquqi mustaqil fan va huquq sohasi sifatida o'z o'rniga ega. Mehnat huquqi nazariyasining fundamental qoidalari qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti orqali amalga oshirib kelinmoqda. Shunday bo'lsa-da, davlat va jamiyat hayotida ro'y berayotgan o'zgarish va yangilanishlar ushbu huquq sohasi ayrim tarkibiy qismlarining mazmunini qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida davlatning eng asosiy vazifalari bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni echimini topish, mavjud davlat dasturlari ijrosini ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish va aholi turmish darajasini yaxshilash hisoblanadi. Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirishda aholini ish bilan ta'minlashning samarali ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa ayniqsa qishloq joylardagi ishsizlik, norasmiy ish bilan bandlik va kambag'allik darajasini kamaytirishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mehnat huquqini rivojlantirish haqida gap ketganda albatta ushbu sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ahvoli va mutaxassis kadrlarni tayyorlashga ham qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ushbu huquq sohasining rivoji ushbu jarayonlar bilan bevosita bog'liq holda kechadi.

Mehnat huquqi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish va ularni himoya qilishda "jonlanish" boshlandi. Mehnat sohasida tadqiqotlar olib borish huquqning boshqa sohalariga (konstitutsiyaviy huquq, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi) qaraganda uncha ommabop emas. Mamlakatimizda 1991-2020 yillarda 12.00.05-Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta'minot huquqi ixtisosligi bo'yicha jami 4 ta dissertatsiya ishi himoya qilingan. Bular: 1) Ismoilov Sh.A. Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari (DSc, 2020 y.); 2) Atajanova D.S. Ayollar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslar mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari (2018); 3) Ziyadullaev M.J. O'zbekistonda yoshga doir pensiya tizimi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish (PhD, 2019 y.); 4) Sattarova G.D. Коллективно-договорное регулирование трудовых отношений в Республики Узбекистан (к.ю.н., 2009 г.).

Shuningdek, huquqshunos olimlar A.A.Inoyatov, M.A.Usmanova, M.Y.Gasanov, Y.Tursunov, G.D.Sattarova, J.T.Xolmo'minov, M.Rahimov, X.V.Burxanxodjaeva, B.Raximberganova, M.Ibragimovalar tomonidan chop etilgan o'quv adabiyotlari va ilmiy maqolalarda tadqiqot mavzusi bilan bog'liq fikr-mulohazalar bildirilgan.

Ta'kidlash lozimki, bunday kichik ko'rsatkich ushbu huquq sohalarining bozor munosabatlari sharoitida ahamiyati pasayganligi yoki tadqiqotchilarning bu sohalarida ilmiy izlanishlar olib borishga qiziqish bildirmasligi sababli kelib chiqmagan. Bunga boshqa omillar sabab bo'lgan. Xususan, mehnat huquqi sohasida fan doktori ilmiy darajasiga ega olimlarning yo'qligi ushbu ixtisoslikda dissertatsiya ishlarini himoya qilishni deyarli imkonsiz holatga aylantirgan. Mehnat sohada dissertatsiya ishini himoya qilish uchun fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'lgan olimlarni xorijiy davlatlardan taklif qilish lozim edi. Qo'shimcha sarf-xarajat va tartib-taomillarni talab qilgan bunday og'ir jarayon tadqiqotchi uchun o'tib bo'lmas to'siqqa aylangan edi. Natijada, mehnat huquqi mutaxassislari (M.A.Usmanova, Sh.A.Ismoilov, Sh.M.Gaziev) ham tutash sohalar bo'yicha dissertatsiya ishlarini himoya qilishdi. Shuningdek, boshqa huquq sohasining mutaxassislari (M.M.Mamasiddiqov, G.M.Muradova, B.T.Musaev, M.M.Maxamatov) tomonidan mehnat huquqi muammolari bilan bog'liq tadqiqot ishlarining amalga oshirilganligi ushbu fanning rivojlanishiga hissa qo'shdi. O'tgan o'ttiz ichida mehnat huquqi sohasida ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash masalasi bo'yicha tanqidiy fikr-mulohazalar bildirilganligiga qaramasdan amaliy choralar ko'rilmadi. Yaqin 3-4 yil esa ichida ilm-fanga bo'lgan munosabatning o'zgarish ortida vaziyat yaxshi tomonga o'zgardi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan turdosh huquq sohalari bo'yicha fan doktori ilmiy darajasiga bo'lgan hamda mehnat huquqi sohasida fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'lgan olimlar tarkibida bir martalik kengashlarni tuzish va ularda himoya o'tkazishga ruxsat berildi. Natijada bir martalik kengashlar tuzish orqali 2018-2020-yilda jami 3 ta doktorlik dissertatsiyasi (2 ta PhD va 1 ta DSc) himoya qilindi. Ushbu ko'rsatkich, oldingi yillar bilan solishtirilganda ijobiy hisoblanadi. Biroq mazkur sohada ilmiy darajali kadrlarga bo'lgan talabni qondirmaydi. Shu sababli, kichik sondagi (1 nafardan 3 nafargacha) fan doktori ilmiy darajasiga ega olimlarning ko'payishiga tezroq erishib, ularning ilmiy kengashlar tarkibiga kirishini ta'minlash lozim.

NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida mehnat munosabatlari demokratik, insonparvarlik va adolat tamoyillariga asosan huquqiy tartibga solingan hamda bozor munosabatlari sharoitidagi zamon talablariga javob beradi. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida nazarda tutilgan "Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalani huquqiga ega"[1], ekanligi haqidagi qoidani amalga oshirishga qaratilgan barcha munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar o'rnatilgan. Shuningdek, "Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi"da ham mehnat qilish huquqi insonning eng muhim tabiiy huquqlaridan ekanligi tan olingan. Ushbu Deklaratsiyaning 23-moddasida ta'kidlanganidek: "Har bir inson mehnat qilish, ishni o'z erki bilan tanlab olish, mehnatning adolatli va qulay sharoitlari bo'lishi va ishsizlikdan muhofaza etilish huquqiga egadir"[2, 34-35].

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida aholining ish bilan bandligini ta'minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Yangilanayotgan O'zbekistonda ishsiz aholini ish bilan ta'minlash, ularga doimiy daromad manbaini yaratishga ko'maklashish, ayniqsa, ishsiz yoshlar va ayollarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, ularning bandligini ta'minlash davlat strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Chunki ishsizlik muammosining mavjudligi bozor iqtisodiyotining ajralmas xususiyatidir. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev to'g'ri ta'kidlaganidek "Yangi O'zbekistonni dunyoning taraqqiy topgan, ijtimoiy-iqtisodiy barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoriga kirishini ta'minlash - barqaror rivojlanish strategiyamizning mazmun va mohiyatini tashkil etadi.

Bunda aholining to'liq bandligini ta'minlash va barcha uchun munosib ish o'rinlarini yaratish doimiy ravishda diqqat markazimizda bo'ladi. Bandlik darajasini yangi bosqichga ko'tarish, real ish haqining barqaror o'sishiga ko'maklashuvchi oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik tomorqa xo'jaligi va xususiy biznesni qo'llab-quvvatlash hisobiga aholi bandligini ta'minlash hamda fuqarolar oilaviy byudjeti daromadlarini oshirish borasidagi ishlar ham biz uchun o'z ahamiyatini saqlab qoladi"[3, 202-209]. Shunday ekan, aholining ish bilan bandligini oshirish orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida quyidagilarni ta'kidlab o'tdilar: "Bugunning o'zida har bir bitiruvchini aniq bir tashkilotga birlashtirishni ta'minlash bilan birga, uning bo'lajak ish joyi, ish haqi va ijtimoiy sharoitlarini aniq belgilash zarur"[4].

Mustaqillik qo'lga kiritilib, bozor iqtisodiyotiga o'tishshi bilan mehnat resurslaridan foydalanish, ish kuchining ham o'z qiymatiga ega, sotiladigan hamda sotib olinadigan boylikka aylanib borishi bilan bog'liq bo'lgan mehnat bozorini shakllantirishni dolzarb vazifa qilib quydi. Bozor munosabatlari mehnatning oqibatlarini, ishchi kuchining sifatiga nisbatan qattiq talablar qo'yishi tufayli mehnat qilish huquqi va uning ro'yobga chiqarilishi borasidagi qonunchilik hujjatlarini tubdan qayta ko'rib chiqish, bu sohada chuqur islohotlarni amalga oshirish eng dolzarb vazifaga aylanib qoldi. Sotsializm sharoitida qon-qonimizga singib ketgan boqimandalik va mas'uliyasizlik tuyg'ularidan tezroq xalos bo'lishga imkon beruvchi hamda mehnat bozorida raqobatga bardosh bera olishi qiyin bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan muhofaza qilishni ta'minlay oladigan huquqiy bazaning vujudga keltirilishi zarar edi. Ushbu vazifani O'zbekiston

FALSAFA

Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi bajardi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 94-moddasida ko'rsatilganidek "Har kimga o'zining ishlab chiqarishga va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalanish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish bo'yicha mutlaq huquq tegishlidir.

Har kim ish beruvchiga bevosita murojaat qilish yoki mehnat organlarining bepul ko'magi orqali, shuningdek, xususiy bandlik agentliklarining xizmatlari vositasida ish joyini erkin tanlash huquqiga egadir"[5]. Mehnat qilish huquqlari fuqarolar tomonida amalga oshirilish paytida turli xil kamsitishlar, noqonuniy imtiyozlar berish, fuqaro uchun noqulay bo'lgan sharoitlarda ishlashga hech kimning majbur qilishiga haqqi yo'qdir.

Ishsizlar – o'n olti yoshdan to pensiya bilan ta'minlanish huquqini olishgacha bo'lgan yoshdagi, haq to'lanadigan ishga yoki daromad keltiradigan mashg'ulotga ega bo'lmagan, ish qidirayotgan va ish taklif etilsa, unga kirishishga tayyor bo'lgan yoxud kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan o'tishga yoki malakasini oshirishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli shaxslar (bundan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotganlar mustasno).

Chunonchi, ishga joylashishda ko'mak olish uchun mahalliy mehnat organlariga murojaat qilgan va ular tomonidan ish qidiruvchi sifatida ro'yxatga olingan shaxslar ishsiz, deb e'tirof etiladi.

MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunning 2-moddasiga asosan "ish bilan ta'minlanish – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir". Unumli va ijodiy mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatlarini tasarruf etish va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat, shu jumladan haq to'lanadigan ishni bajarishga aloqasi bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullanish mutlaq huquqi fuqarolarga tegishlidir.

Aholini ish bilan ta'minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, u mehnat masalalari bilan bog'liq muammolarni va mehnatga bo'lgan taklif hamda talablarni qondirish yo'llarini ochib beradi. Ish hamda bandlik kishilarning ish joylari qayerdaligidan qat'i nazar, ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish yuzasidan o'zaro kirishadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlaridir. Ish va bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli kishilarning qanchasi hamda qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichdir.

Ish bilan bandlik ijtimoiy rivojlanishning har bir bosqichiga xos turli ko'rinish hamda shakllarda namoyon bo'ladigan o'ziga xos hodisadir. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 95-moddasida aytilganidek: ishga joylashtirish bo'yicha davlat kafolatlari. Davlat: bandlik turini, shu jumladan turli mehnat rejimidagi ishni tanlash erkinligini; ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishdan, qonunga xilof ravishda boshqa ishga o'tkazishdan, xodimni ishdan chetlashtirishdan va mehnat shartnomasini bekor qilishdan himoyalashni; maqbul keladigan ish tanlashga va ishga joylashishga bepul ko'maklashishni; kasb egallashda va ishga ega bo'lishda, mehnat qilish va bandlik sharoitlarida, mehnatga haq to'lashda, xizmat pog'onalari bo'yicha ko'tarilishda har kimga imkoniyatlar tengligi yaratilishini; ish qidirayotgan shaxslarni va ishsizlarni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga hamda ularning malakasini oshirishga ko'maklashishni; mehnat organlarining taklifiga ko'ra ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib ketish munosabati bilan qilingan xarajatlar kompensatsiya qilinishini; haq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etish imkoniyatini kafolatlaydi[5]. Ishga joylashtirish bo'yicha kafolatlarni taqdim etish tartibi aholi bandligi to'g'risidagi qonunchilikda belgilanadi.

Aholini ishga joylashtirishga yordamlashish, asosan, O'zbekiston Respublikasining Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va uning ma'muriy birliklarda joylashgan organlari tomonidan amalga oshiriladi. Vazirlikning asosiy vazifasiga yangi ish o'rinlari tashkil etish uchun davlat buyurtmasini ishlab chiqish, aholi bandligini ta'minlashga doir hududiy va tarmoq dasturlarni amalga oshirish, oliy hamda o'rta maxsus, kasbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish va boshqalar kiradi.

Aholini ish bilan ta'minlash hamda unga ta'sir ko'rsatish usullariga quyidagilar kiradi:

- bilvosita (ma'muriy) usullar: qonun yo'li bilan tartibga solish;
- mehnat qonunchiligi, jamoa shartnomalari;
- bevosita (iqtisodiy) usullar: moliyaviy, monetary, fiskal (xazina) siyosati.

Aholini ish bilan ta'minlashga davlatning ta'sir ko'rsatish usullari:

passiv ta'sir ko'rsatish – ish bilan band bo'lmagan aholiga ijtimoiy yordam;

faol ta'sir ko'rsatish – mehnat taklifini rag'batlantirish, mehnatga bo'lgan ta'labni rag'batlantirish, talab va taklifni muvofiqlashtirish chora-tadbirlari[6].

Aholini ish bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi mehnat bozorini shakllantirish hamda rivojlantirishga, bu sohada amal qila boshlagan raqobat sharoitida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining muhofaza etilishlarini ta'minlashdan iborat. Aholini ish bilan ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar bandlik xizmati organlari tomonidan bepul amalga oshiriladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish lozimki, bizning oldimizda aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan zarur choralarni ko'rish kabi muhim vazifa turibdi. Bunga biz aholining ish bilan bandligiga, mulkchilikning turli shakllari rivojlangan, yashash va mehnat qilish joylari erkin tanlangan, mehnat qonunlariga binoan ishga joylashish kafolatlari mavjud bo'lgan va mehnat daromadidan soliqlar qisqartirilgan sharoitlar bo'lsagina erishishimiz mumkin. Ijtimoiy sohani takomillashtirish va bu boradagi islohotlar bilan aloqador bo'lgan idoraviy axborot tizimlari, elektron resurs va ma'lumotlar bazalari mavjud emasligi ham bu boradagi ishlarimiz rivojiga xalal bermoqda. Mamlakatimizning ko'plab hududlaridagi mehnat bozorida doimiy ish o'rinlari mavjud emasligi va shu bilan birga yoshlar, xotin-qizlar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari bandligini to'la-to'kis ta'minlashga erishilmagani ham ijtimoiy sohaga doir islohotlar samarasini kamaytirmoqda. Aholining ish bilan ta'minlanishi davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy hamda huquqiy tadbirlarni amalga oshirish asosida tartibga solinadi. O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichi bu boradagi yondashuvlarni tubdan o'zgartirishni talab qilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Adolat”, 2023.
2. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. // Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. – Toshkent: “Adolat”, 2004. – B.34-35.
3. Mirziyoyev Sh.M. Kuchli ijtimoiy siyosat: mohiyat va imkoniyatlar // Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2021. 202-209 betlar.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // Xalq so'zi. 2017-yil 16-yanvar.
5. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. –Toshkent: “Adolat”, 2023.
6. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T. Aholi ish bilan bandligi o'quv qo'llanma. – Toshkent: “Adolat”, 2011. 20-bet.
7. Ibrokhimov F.A. (2023) [Modern pedagogical approaches in legal education](#). GOLDEN BRAIN. Volume 1, Issue 32. – pp. 174-180.
8. Ibrokhimov F.A. (2023) [Din va huquq](#). Academic research in educational sciences, №1. – pp. 814-816.
9. Ibrokhimov F.A. (2023) [Improving Youth Law Culture Based on the Cluster System and Modern Pedagogical Approaches](#). Miasto Przyszłości, Volume 41. – pp. 1-4.
10. Farhod Ibrohimov. (2022) [Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va axloqiy qarashlari xususida](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education. Volume 5, Issue 28. – pp. 174-180.